

RAQAMLI FISKAL BOSHQARUV DOIRASIDA BARQARORLIK REYTINGINING IQTISODIY SAMARADORLIGI VA METODOLOGIK TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI

DSc Abdullayev Zafarbek

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0000-2685-5398

zafarbek.abdullayev555@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada O'zbekistonda raqamli fiskal boshqaruvni kuchaytirish maqsadida tatbiq etilgan "Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingi" tizimi tahlil qilinadi. Baholash jarayoni yuridik shaxslarning soliq intizomi, moliyaviy shaffoflik, rasmiylashtirish intizomi hamda ijtimoiy mas'uliyat darajasini avtomatlashtirilgan algoritmlar orqali aniqlashga asoslanadi. Tadqiqot doirasida reyting indikatorlari va real iqtisodiy natijalar o'rtasidagi bog'liqlik, sektoral va hududiy tafovutlar hamda "CRM-NEW" monitoring tizimi bilan metodologik farqlar chuqur tahlil etilgan. Shuningdek, Kruskal–Wallis H testi asosida reyting toifalari va soliq xavfi o'rtasidagi statistik munosabatlar aniqlanib, baholash tizimining ishonchlilik darajasi asoslab berilgan. Maqolada reyting mexanizmini takomillashtirishga doir konseptual va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: barqarorlik reytingi, soliq intizomi, fiskal boshqaruv, moliyaviy shaffoflik, reyting metodologiyasi, CRM-NEW, iqtisodiy samaradorlik, sektorlar kesimi, soliq xavfi, statistik tahlil.

ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬ РЕЙТИНГА УСТОЙЧИВОСТИ И НАПРАВЛЕНИЯ ЕГО МЕТОДОЛОГИЧЕСКОГО СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОГО ФИСКАЛЬНОГО УПРАВЛЕНИЯ

DSc Абдуллаев Зафарбек

Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В статье рассматривается система «Рейтинга устойчивости субъектов предпринимательства», внедрённая в Узбекистане в рамках укрепления цифрового фискального управления. Оценка деятельности юридических лиц осуществляется на основе автоматизированных алгоритмов с учётом налоговой дисциплины, финансовой прозрачности, корректности документооборота и уровня социальной ответственности. В рамках исследования проведён всесторонний анализ взаимосвязи между рейтингом и фактическими экономическими результатами, отраслевых и региональных различий, а также методологических расхождений с системой мониторинга "CRM-NEW". С помощью критерия Краскала–Уоллиса установлена статистически значимая зависимость между рейтингом и налоговыми рисками, что позволило обосновать надёжность используемой модели. В статье предложены концептуальные и прикладные рекомендации по совершенствованию механизма рейтинговой оценки.

Ключевые слова: рейтинг устойчивости, налоговая дисциплина, фискальное управление, финансовая прозрачность, методология рейтинга, CRM-NEW, экономическая эффективность, отраслевой анализ, налоговый риск, статистический анализ.

ECONOMIC EFFECTIVENESS AND METHODOLOGICAL IMPROVEMENT OF STABILITY RATING WITHIN THE FRAMEWORK OF DIGITAL FISCAL GOVERNANCE

DSc **Abdullayev Zafarbek**

Tashkent State University of Economics

Abstract. *This article analyzes the “Business Entity Stability Rating” system implemented in Uzbekistan as part of efforts to enhance digital fiscal governance. The evaluation process is based on automated algorithms that assess legal entities through indicators such as tax discipline, financial transparency, documentation accuracy, and social responsibility. The study examines the correlation between rating indicators and actual economic performance, highlights sectoral and regional disparities, and explores methodological differences with the “CRM-NEW” monitoring system. Using the Kruskal–Wallis H test, a statistically significant relationship is identified between rating categories and tax risk levels, supporting the reliability of the assessment framework. The paper concludes with conceptual and practical recommendations for improving the rating mechanism.*

Keywords: *stability rating, tax discipline, fiscal governance, financial transparency, rating methodology, CRM-NEW, economic efficiency, sectoral analysis, tax risk, statistical analysis.*

Kirish.

Mamlakatda tadbirkorlik subyektlarini iqtisodiy intizomga undovchi, ularning fiskal xulq-atvorini baholovchi hamda moliyaviy shaffoflik darajasini aniqlovchi zamonaviy reyting tizimining joriy etilishi fiskal boshqaruvning raqamli transformatsiyalashuv bosqichida muhim burilish nuqtasiga aylandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegilshi qaroriga (2024) muvofiq, 2024-yil 1-fevraldan boshlab yuridik shaxslar faoliyatini baholashning avtomatlashtirilgan reyting tizimi joriy qilindi. Mazkur tizim orqali yuridik shaxslarning barqarorlik darajasi 23 ta kompleks indikator asosida baholanadi hamda baholash natijalari elektron platforma orqali real vaqt rejimida shakllantiriladi (Qaror, 2024).

Reyting tizimining joriy etilishi orqali tadbirkorlik subyektlarining qonunchilikka muvofiq faoliyat yuritish intizomi, soliq majburiyatlarini o'z vaqtida bajarish va moliyaviy shaffoflik darajasi aniqlanadi. Ayniqsa, yuqori reytingli (AAA, AA, A) toifalarga mansub subyektlarga soliq imtiyozlari, QQSni 1 kunda qaytarish, importdagi soliq summalarini o'zaro hisobga olish kabi bir qator rag'batlantiruvchi chora-tadbirlar qo'llanilishi belgilangan.

Ushbu tadqiqotning dolzarbligi shundaki, barqarorlik reytingi tizimi, bir tomondan, davlat–biznes munosabatlarida ochiqlik va ishonchni kuchaytirs, boshqa tomondan esa soliq boshqaruvi samaradorligini oshirish, fiskal tartib-intizomni ta'minlash va biznesni rag'batlantirishga xizmat qiladi. Bu tizim, shuningdek, davlat resurslarining samarali taqsimlanishiga, iqtisodiy faoliyatning rasmiy sektor doirasida yuritilishiga va barqaror iqtisodiy rivojlanishga asos bo'luvchi selektiv mexanizm vazifasini ham bajaradi.

Shu nuqtayi nazardan, mazkur ilmiy ishda O'zbekiston tajribasida tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingi tizimining shakllanishi, baholash mezonlari, metodologiyasi, amaliy natijalari, statistik tahlillari hamda xalqaro reyting tizimlari bilan qiyosiy jihatlari atroflicha o'rganiladi. Tadqiqot reyting tizimining nazariy asoslari, normativ-huquqiy bazasi, baholash indikatorlari, ularning iqtisodiy va institutsional samaradorligi, hamda real fiskal intizom bilan uyg'unligi asosida ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishga qaratilgan.

Adabiyotlar sharhi.

Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingi tizimining nazariy-metodologik asosi, baholash indikatorlari, iqtisodiy samaradorligi va xalqaro amaliyot bilan uyg'unligi masalalari milliy va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan turlicha nuqtai nazardan tahlil etilgan.

Barqarorlik reytingi tizimining nazariy-metodologik asoslari, iqtisodiy samaradorligi va xalqaro tajribalardagi yondashuvlar milliy va xorijiy manbalarda turlicha nuqtai nazardan yoritilgan. Quyida adabiyotlar tematik guruhlariga bo'lingan holda taqdim etiladi.

Xalqaro tadqiqotlar:

Soliq intizomi va rag'batlantirish mexanizmlari

Alm, (1999) Tax Compliance and Administration ishida soliq intizomining psixologik va institutsional omillariga e'tibor qaratadi. Unga ko'ra, soliqni ixtiyoriy to'lash darajasi jazodan ko'ra ishonch va rag'batga ko'proq bog'liq.

OECD (2017) Tax Administration Comparative Information hisobotlarida raqamli monitoring va reyting tizimlari orqali soliq xulq-atvorini rag'batlantirish samaradorligi ko'rsatilgan.

Reyting tizimlari va baholash metodologiyasi

World Bank (2020) Doing Business reytingidagi Paying Taxes indikatori orqali davlatlar soliq yukini kamaytirish, shaffoflikni ta'minlash va baholash mexanizmlarini shakllantirish borasida taqqoslash imkonini beradi.

S&P, Moody's, Fitch Ratings (2023, 2022) – Bu agentliklarning reyting metodologiyalari kreditga layoqatlilik, fiskal barqarorlik va moliyaviy xavflarni baholaydi. Ayniqsa, S&P Global (2023) ning "Principles of Credit Ratings" hujjatida reytinglar orqali rag'batlantirish mexanizmi chuqur asoslangan.

Selektiv baholash va iqtisodiy xatti-harakat nazariyalari

Becker & Murphy (1988) – Iqtisodiy tanlovlar va baholovchi tizimlar orqali xatti-harakatlarga ijtimoiy signal berish mexanizmi izohlangan. Bu yondashuv selektiv reyting tizimlarining nazariy negizini beradi.

Milliy tadqiqotlar (O'zbekiston tajribasi):

Raqamli fiskal boshqaruv va soliq islohotlari

Saidova (2022) – Raqamli iqtisodiyot va fiskal intizom nomli monografiyada nazoratdan rag'batga o'tish yondashuvi, raqamli baholash tizimlarining fiskal samarasi tahlil qilingan.

Ayupov & Urunov (2019) Raqamli iqtisod va 4.0 industriya asarida avtomatlashtirilgan axborot tizimlarining soliq boshqaruvidagi institutsional roliga baho beriladi.

Moliyaviy shaffoflik va soliq xulq-atvori

Nazarova (2021) Moliyaviy savodxonlik asoslari darsligida yuridik shaxslarning fiskal muvofiqligi va shaffof faoliyati uchun baholash tizimlarining o'rni ko'rsatilgan.

Bazarova (2024) Soliq tizimini takomillashtirish yo'llari maqolasida soliq islohotlarining fiskal intizom va iqtisodiy samaradorlikka ta'siri chuqur ko'rib chiqilgan.

Barqarorlik reytingi tizimi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar

Abdullayev (2025) Barqarorlik reytingi orqali fiskal intizom va biznes muhitini rag'batlantirish maqolasida milliy reyting tizimi, uning indikatorlari, xalqaro taqqoslash va metodologik takomillashtirishlar yoritilgan.

Islomov, G'ulomov (2023) Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarida reyting tizimlari maqolasida reyting natijalarining investorlar uchun signal vazifasi sifatidagi roli tahlil qilingan.

Xalqaro manbalarda reyting tizimi soliq xatti-harakatini ixtiyoriylashtirish, ishonchni mustahkamlash va rag'batlantirish usuli sifatida qaralsa, milliy adabiyotlarda bu tizim fiskal transformatsiyaning markaziy elementi sifatida baholangan. Shuning uchun maqolada reyting tizimining nazariy asoslari, milliy va xalqaro yondashuvlar qiyosiy tahlili orqali mustahkam ilmiy yondashuv shakllantirilgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqotda "Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingi" tizimini baholashda normativ-huquqiy hujjatlar tahlili, statistik ma'lumotlar asosidagi empirik yondashuv va kontent-tahlil metodlaridan foydalanildi. Asosiy manbalar sifatida O'zbekiston

Respublikasi Prezidentining Qarorlari, Soliq qo'mitasi va Savdo-sanoat palatasi tomonidan e'lon qilingan rasmiy hisobotlar, "my3.soliq.uz" elektron platformasida mavjud reyting ma'lumotlari, shuningdek reyting tizimi bo'yicha ochiq statistik bazalar xizmat qildi.

Tahlil jarayonida "CRM-NEW" va "Barqarorlik reytingi" tizimlarining baholash indikatorlari o'zaro solishtirildi. Bunda mezonlar xususiyati, baholash algoritmi, formal va real ko'rsatkichlar o'rtasidagi farqlar aniqlashga yo'naltirilgan solishtirma tahlil (comparative matrix approach) metodologiyasi qo'llandi. Tahlil natijalari sektorlar va hududlar kesimida ajratilgan holda, yuridik shaxslarning yuqori reytingga "AAA"–"A" kirish ko'rsatkichlari asosida baholandi.

Soha kesimidagi tafovutlarni aniqlash uchun iqtisodiyotning asosiy yo'nalishlari ya'ni ishlab chiqarish, chakana savdo, ulgurji savdo, qishloq xo'jaligi, qurilish, boshqa xizmatlar va import subyektlari bo'yicha 2024-yil oktabr holatidagi statistik ko'rsatkichlar asosida hisob-kitoblar amalga oshirildi. Har bir yo'nalishda yuqori reytingli subyektlar soni va ularning ulushi aniqlanib, foizlarda ifodalandi. Grafik vizualizatsiya vositasi sifatida foydalanilib, diagrammalar va ustunli grafiklar tuzildi.

Shuningdek, reyting tizimining metodologik zaif tomonlarini aniqlash uchun kontent-tahlil asosida me'yoriy mezonlarning amaliy qo'llanishi, ballarni shakllantirishdagi anomalialar va oshirilgan intizomga asoslangan holatlar o'rganildi. Baholash mexanizmidagi mumkin bo'lgan nomuvofiqliklar, jumladan, faoliyatsiz subyektlarning ball to'plashi yoki formal ko'rsatkichlar asosida reytingda yuqori toifa olish holatlari aniqlanib, ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqildi.

Ushbu metodologik yondashuv tadqiqotda tizimli tahlil, raqamli asoslanganlik va amaliy muammolarni aniqlash orqali reyting tizimini takomillashtirish yo'nalishlarini aniqlashga xizmat qildi.

Nazariy-tushunchaviy asoslar.

Barqarorlik (sustainability) - Tadbirkorlik subyektining iqtisodiy faoliyatida uzluksizlikni ta'minlay olish qobiliyati, moliyaviy barqarorlikni saqlagan holda huquqiy va fiskal majburiyatlarni muntazam bajarishi. Alm (1999), Becker & Murphy (1988), OECD (2017).

Fiskal intizom (fiscal discipline) - Yuridik shaxs tomonidan davlat byudjeti oldidagi soliq va boshqa majburiyatlarni qonunchilikda belgilangan muddatda va hajmda bajarish holati. Bu tushuncha faqat soliq to'lash bilan emas, balki hisobotlarni o'z vaqtida va aniq topshirish, ortiqcha yoki kam to'lovlarni aniqlashtirish va o'z vaqtida tuzatishlarni ham o'z ichiga oladi. S&P (2023), World Bank (2020).

Moliyaviy shaffoflik (financial transparency) - Korxonaning moliyaviy faoliyati, daromad va xarajatlari, soliq hisobotlari, aktiv va passivlari, foyda va zararlarining to'liq, haqqoniy va elektron shaklda aks ettirilganligi. Bu element investorlar, davlat va boshqa manfaatdor tomonlar uchun ishonch indikatoridir. Nazarova (2021).

Iqtisodiy faoliyat samaradorligi (economic performance efficiency) - Korxonaning iqtisodiy resurslardan maksimal natija olgan holda foydalanishi, bu foyda, rentabellik, ish haqi, eksport hajmi va ishlab chiqarish ko'rsatkichlarida ifodalanadi. Fitch Ratings (2022), Bazarova (2024).

Selektiv mexanizm (selective mechanism) - Reyting tizimi orqali korxonalarni turli toifalarga ajratish, iqtisodiy intizom darajasiga qarab rag'batlantirish yoki nazoratga olish mexanizmi. Bu mexanizm orqali davlat resurslari samarali taqsimlanadi: yuqori reytinglilarga imtiyozlar, past reytinglilarga monitoring. Becker & Murphy (1988).

Sun'iy faoliyat (pseudo-activity) - Yuridik shaxs faoliyat yuritmayotgan bo'lsada, faqat rasmiy ro'yxatdan o'tgan holatda turib, reytingda ball to'plash imkonini beruvchi, lekin real iqtisodiy samaradorligi mavjud bo'lmagan holat. Bu holatlar reyting tizimining manipulyatsiya qilinishiga olib kelishi mumkin, ayniqsa, faoliyat davomiyligi bo'yicha ball oluvchi indikatorlarda.


Tahlil va natijalar muhokamasi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-yanvardagi PQ-39-son qaroriga muvofiq joriy etilgan "Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingi" tizimi doirasida yuridik shaxslar faoliyati 23 ta kompleks indikatorlar asosida baholanmoqda. Ushbu reyting metodologiyasi, bir tomondan, soliq intizomi, moliyaviy shaffoflik va faoliyat barqarorligini baholash imkonini bersa, boshqa tomondan esa, rag'batlantirish va monitoring mexanizmlarini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, yuqori reytingli "AAA", "AA", "A" toifalarga mansub subyektlar iqtisodiy jihatdan eng ishonchli hamda qonunchilikka rioya qiluvchi korxonalar sifatida e'tirof etilib, ularning soliq intizom ko'rsatkichlari davlat byudjetiga to'lovlar hajmi orqali ham o'z tasdig'ini topmoqda.

Yuqori reytingli subyektlar "AAA", "AA", "A" toifadagilar 2024-yil oktabr holatiga ko'ra, jami 7 266 ta yuridik shaxs barqarorlik reytingining yuqori toifalari bo'yicha tasniflangan. Bu toifalar reyting tizimida eng ishonchli, qonunchilikka rioya qiluvchi va moliyaviy intizomga ega subyektlar sifatida e'tirof etiladi. Bu reyting ballari yigirma uchta indikator asosida shakllanib, ular orasida faoliyat davomiyligi, foydalilik ko'rsatkichi, soliq va hisobot intizomi, elektron hujjat aylanishi va ishchi kuchining rasmiylashuvi kabi mezonlar asosiy rol o'ynaydi.

Yuqori reytingli tadbirkorlik subyektlari tomonidan davlat byudjetiga jami 470 milliard so'mdan ortiq soliq to'lovlari amalga oshirilgan bo'lib, bu ularning iqtisodiy faoliyatining barqarorligi va shaffofligini tasdiqlaydi. Reyting va fiskal ko'rsatkichlarning uyg'unligi reyting metodologiyasining amaliy samarasini ko'rsatadi.

Tahlil natijalariga ko'ra, hududlar kesimida yuqori reytingli subyektlar soni bo'yicha Toshkent shahri yetakchi bo'lib jami 2 787 ta korxona ushbu toifaga kirdi. Bu ko'rsatkich soliq boshqaruvi samaradorligi, axborot tizimlari bilan integratsiya darajasi va tadbirkorlik madaniyatining shakllanganligidan dalolat beradi. Keyingi o'rinlarda Samarqand viloyati 550 ta va Farg'ona viloyati 525 ta subyekt bilan o'rin egallagan bo'lib, bu hududlarda ham yuqori reytingli subyektlar salmog'i ortib borayotganini anglatadi (1-rasm).




1-rasm. Hududlar bo'yicha yuqori reytingli "AAA", "AA", "A" subyektlar soni

Ushbu reyting tizimi real soliq intizomi bilan bevosita bog'liqligini tasdiqlovchi statistik asoslarga tayangan holda ishlab chiqilgan bo'lsada, reyting ballari va haqiqiy to'lov salohiyati o'rtasidagi nisbat doimiy tahlil va monitoringni talab etadi. Shuning uchun yuqori reytingli subyektlar nafaqat statistika asosida, balki kompleks baholash yondashuvi orqali aniqlanadi.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, "AAA", "AA" va "A" reyting toifalariga mansub yuridik shaxslar nafaqat yuqori soliq va hisobot intizomiga ega, balki barqaror iqtisodiy faoliyat yuritayotgan, qonunchilik talablariga rioya qiluvchi subyektlar sifatida e'tirof etiladi. Ular

tomonidan davlat byudjetiga to'langan 470 milliard so'mdan ortiq soliq summasi bu fikrni tasdiqlovchi muhim fiskal ko'rsatkich hisoblanadi. Reyting baholash indikatorlarining soliq boshqaruvi, moliyaviy shaffoflik va faoliyat izchilligini aks ettiruvchi tizimli mezonlarga asoslanishi, ayni paytda amaliy jihatdan ham ishonchli natijalarni bergani, tizimning metodologik samaradorligini namoyon etmoqda. Ayniqsa, Toshkent shahri, Samarqand va Farg'ona viloyatlarida yuqori reytingli subyektlar sonining nisbatan ko'pligi hududiy soliq boshqaruvi samaradorligining va tadbirkorlik madaniyatining yetukligidan dalolat beradi. Shu bois reyting baholash natijalarini doimiy monitoring qilish va real fiskal salohiyat bilan uyg'unligini tahlil qilish, tizimning xolisligini saqlash hamda kelgusida yanada takomillashtirish uchun muhim metodologik talab bo'lib qolmoqda.

Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini aniqlashda iqtisodiyot tarmoqlari kesimida kuzatilayotgan tafovutlar reyting tizimi samaradorligini chuqur tahlil qilish zaruratini yuzaga keltiradi. 2024-yil oktyabr holatidagi statistik ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatda 568 981 ta yuridik shaxs faoliyat yuritayotgan bo'lib, ular orasida ishlab chiqaruvchilar, savdo va xizmat ko'rsatish subyektlari, qishloq xo'jaligi korxonalari, qurilish tashkilotlari va boshqa yo'nalishlarda ishlovchilar mavjud (2-rasm).



2-rasm. Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini iqtisodiyot tarmoqlar kesimidagi tahlili

Ishlab chiqaruvchilar umumiy subyektlar sonining 47 427 ta tashkil etadi. Ulardan 228 tasi 0,5% yuqori reytingga, ya'ni "AAA", "AA" yoki "A" toifalariga kiradi (1-jadval). Bu holat ushbu toifadagi korxonalarning ishlab chiqarish jarayoni va moliyaviy faoliyatda aniq hisob-kitob yuritayotganini, rasmiy hujjatlar va soliq hisobotlarini o'z vaqtida taqdim etishini anglatadi. Bundan tashqari, ularning eksport salohiyati yuqori bo'lib, raqamli fiskal boshqaruv talablariga muvofiqligi yuqoriligi kuzatilmoqda.

Savdo sohasi, jumladan chakana va ulgurji savdo subyektlari mamlakatdagi eng yirik tarmoq bo'lib, umumiy korxonalarning 42 foizini (236 123 ta) tashkil qiladi. Biroq ushbu katta salmog'iga qaramay, ularning atigi 280 tasi (0,11%) yuqori reyting toifasiga kiradi. Bu esa savdo sohasida mavjud bo'lgan bir qancha muammolarga ishora qiladi. Xususan, ko'plab

korxonalarda hujjatlarning to'liq va tizimli yuritilmasligi, realizatsiya va elektron hisobvara-q-fakturalar o'rtasida nomuvofiqliklar hamda soliq qarzdorligi yoki hisobotlarni o'z vaqtida topshirmaslik holatlari mavjudligini ushbu muammolar sifatida takidlash mumkin. Bunday kamchiliklar ushbu sektor reyting ballarining pasayishiga olib kelmoqda va tizimda salbiy holatlar kuzatilgan bo'lishi mumkinligiga ishora qiladi.

1-jadval


**Barqarorlik reytingi bo'yicha sohalar kesimidagi tafovutlar
(2024-yil oktabr holatiga)**

Tarmoq	Yuridik shaxslar soni	AAA-AA-A reytingli	Ulushi (%)
Ishlab chiqaruvchilar	47 427 ta	228 ta	0.5%
Chakana savdo	236 123 ta	280 ta	0.11%
Ulgurji savdo	42 181 ta	181 ta	0.4%
Qishloq xo'jaligi	115 621 ta	29 ta	0.02%
Qurilish korxonalari	21 093 ta	66 ta	0.3%
Boshqalar	42 644 ta	95 ta	0.22%
Import qiluvchilar	119 ta	0 ta	0%
Jami yuridik shaxslar	568 981 ta	9631 ta	1.69%

Qishloq xo'jaligi soxasida 115 621 ta yuridik shaxsni qamrab olgan. Reyting tizimi bo'yicha ushbu subyektlarning 83,5 foizi quyi toifa — ya'ni "D" reytingda joylashgan. Bu ko'rsatkich tizimdagi eng salbiy natijadir va quyidagi muammolarni yoritadi:

- Rasmiy hujjatlar va hisob-kitoblar yuritilishining sustligi;
- Elektron platformalardan foydalana olmaslik (raqamli savodxonlik muammosi);
- Soliq hisobotlarini topshirishda sustkashlik;
- Ko'p hollarda faoliyatning rasmiylashtirilmagan shaklda olib borilishi.

Bu tarmoqning past reytingi aslida nafaqat soliq intizomi, balki umuman institutsional islohotlardan chetda qolayotganligini ko'rsatadi. Shuningdek, mezonlar asosida ballarni shakllantirishda ko'pchilik subyektlar asosiy baholash shartlariga yetarlicha javob bera olmayapti, xususan, elektron hisobvara-q-faktura, soliq to'lov intizomi va ijtimoiy himoyadagi xodimlar bandligi bo'yicha ko'rsatkichlar juda past (3-rasm).



3-rasm. Iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha yuqori reytingli subyektlar ulushi

Soha kesimidagi bu tafovutlar tadbirkorlik subyektlari orasidagi institutsional, texnologik va moliyaviy tafovutlarni yaqqol namoyon qiladi. Reytingning avtomatlashtirilgan, indikatorlar asosidagi baholash tizimi iqtisodiyotning qaysi sohalari ilg'or, qaysilari esa orqada qolayotganini aniqlash imkonini bermoqda. Ilmiy nuqtai nazardan qaraganda, bu tahlil tadbirkorlik faoliyatini to'liq rasmiylashtirish, fiskal shaffoflik va soliq intizomini ta'minlashda kuchli selektiv (saralovchi) mexanizm bo'lib xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik subyektlarini baholashda asosiy "CRM-NEW" (Customer Relationship Management – yangi formatdagi raqamli monitoring tizimi) va "Barqarorlik reytingi" tizim amal qilmoqda. Har ikkala tizim tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini baholashga qaratilgan bo'lsada, ular o'zaro sezilarli farqlarga ega.

CRM-NEW tizimi — bu soliq organlarining yuridik shaxslar faoliyatini real tushumlar va fiskal ko'rsatkichlar asosida baholovchi ichki tizimidir. Bu tizimda korxonaning to'lagan soliqlari, hisoblangan soliq summasi, tovar aylanmasi va foyda ko'rsatkichlari hamda amalda faoliyat yuritayotgan bozor segmentlari asosiy indikator sifatida olinadi. Bu tizim moliyaviy oqimlarning real hajmiga va fiskal intizomga e'tibor qaratadi. Tahliliy jihatdan, CRM-NEW iqtisodiy faoliyat hajmi va budjetga real tushumlar bilan bevosita bog'liq bo'lgan tizim bo'lib, korxona samaradorligini aniqlashda obyektiv mezon sifatida ko'riladi.

Barqarorlik reytingi tizimi esa 23 ta ko'rsatkich asosida avtomatik baholashga asoslangan va u elektron hisobvara-fakturalar, soliq hisobotlarining o'z vaqtida topshirilishi, ijtimoiy himoyaga muhtoj xodimlar bandligi, rentabellik va faoliyat davomiyligi, kamaytiruvchi va rag'batlantiruvchi mezonlar asosida baho beradi. Biroq tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, reyting tizimi mezonlari ayrim holatlarda real fiskal intizomni ifoda etmaydi. Xususan, faoliyatsiz yoki sun'iy faoliyat yurituvchi subyektlarga 10 ball berilishi — bu 1-mezon (faoliyat davomiyligi)da vaqtga asoslangan ball berish bilan bog'liq. Masalan, "PRODUCT" MCHJ faoliyat boshlagan sana bo'yicha 10 ball olgan, lekin real tovar aylanmasi yo'q. Quyidagi jadval bu ikki tizim o'rtasidagi konseptual farqni ko'rsatadi (2-jadval).

2-jadval

**“CRM-NEW” axborot tizimi va “Barqarorlik reytingi” platformasi
o'rtasida o'zaro solishtirma farqlar**

Ko'rsatkich	CRM-NEW	Barqarorlik reytingi
Baholash asosi	Real tushum va soliqlar	Formal mezonlar asosida ball tizimi
Yondashuv	Moliyaviy oqim va fiskal intizom	Jarayon va rasmiylashtirish intizomi
Kamchiliklar	Faoliyat ko'rsatkichlariga cheklangan	Faoliyatsiz ball olish imkoniyati
Tahliliy foyda	Budjetga haqiqiy foyda ko'rsatkichini beradi	Subyektning tizimiy xatti-harakatlarga undash
Moslashuvchanlik	Kam	Yuqori (kompleks va tarmoqlarga xos)

Mazkur tafovut shuni anglatadiki, barqarorlik reytingi tizimi hozirda faqat formal ko'rsatkichlar orqali ball berish orqali korxonaning real iqtisodiy samaradorligini to'liq baholashda amaliy ishlar olib borish kerakligini anglatish mumkindir. Ayniqsa, vaqtinchalik rasmiylashtirilgan huquqlar (ijara, faoliyatsiz korxona) orqali yuqori ball olish mumkinligi, reytingni manipulyatsiya qilish xavfini kuchaytiradi. Shu munosabat bilan quyidagi takomillashtirish choralari zarur hisoblanadi:

• Birinchidan, reyting tizimining baholash aniqligi va iqtisodiy real holatga mosligini ta'minlash maqsadida, korxonalar faoliyatining real moliyaviy natijalarini aks ettiruvchi sub-indikatorlar, jumladan real tushumlar hajmi, sof foyda ko'rsatkichi va to'langan soliqlar miqdori kabi mezonlarni reyting formulasiga kiritish maquldir. Bu yondashuv reytingning faqat hujjatdagi ma'lumotlarga emas, balki iqtisodiy natijalarga asoslanishini ta'minlaydi.

• Ikkinchidan, "CRM-NEW" axborot tizimi va "Barqarorlik reytingi" platformasi o'rtasida o'zaro integratsiyani kuchaytirish zarur. Ayniqsa, ballarni hisoblash jarayonida real tushum indikatorlariga asoslanish, reyting natijalarining haqqoniyligini oshiradi hamda moliyaviy shaffoflikni ta'minlaydi. Bu yondashuv indikatorlarning iqtisodiy mantiqiy bog'liqligini mustahkamlaydi.

• Uchinchidan, reyting tizimida manipulyatsiya qilish holatlarini aniqlashga yo'naltirilgan zamonaviy algoritmlarni (xususan, anomaly detection algoritmlari) joriy etish maqsadga muvofiqdir. Masalan, besh yil mobaynida faoliyat yuritgan, biroq hech qanday realizatsiya amalga oshirmagan subyektlarning avtomatik tarzda aniqlanishi va "xavf belgisi" bilan belgilanisa tizimda ichki uyg'unlik va ishonchlilikni oshiradi.

Barqarorlik reytingi tizimi, asosan, korxonalarning soliq intizomi, huquqiy shaffofligi hamda ijtimoiy mas'uliyat darajasi kabi ko'rsatkichlar asosida shakllantirilgan bo'lsada, eksport hajmi va sof foyda ko'rsatkichlari ayrim hollarda reyting toifalari bilan bevosita muvofiqlik kasb etmaydi. Ushbu tafovut, amalda reyting mezonlari tarkibida real iqtisodiy samaradorlikni (ya'ni, ekvivalent tushum va sof foyda ko'rinishidagi natijalarni) yetarli darajada aks ettirmaslik holatini ko'rsatadi. Bu esa reyting tizimini yanada takomillashtirish zarurligini va real moliyaviy ko'rsatkichlar asosida baholash elementlarini kuchaytirishni taqozo etadi.

Ushbu tadqiqot doirasida reyting toifalari (AAA-D) bo'yicha yuridik shaxslarning soliq xavfi miqdorini tahlil qilishda Kruskal-Wallis H testi qo'llanildi. Mazkur test parametrik bo'lmagan (non-parametric) usul bo'lib, bir nechta guruhlar ($k \geq 3$) orasida taqsimotlar o'rtasida mediana qiymatlari bir xilmi yoki farqlanadimi degan savolga javob beradi. Bu test ayniqsa, ma'lumotlar normal taqsimlanmagan yoki dispersiyalar teng bo'lmagan holatlarda afzal hisoblanadi.

Kruskal-Wallis testining statistik qiymati quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$H = \frac{12}{N(N+1)} \sum_{i=1}^k \frac{R_i^2}{n_i} - 3(N+1) \quad (1)$$

Bu yerda:

- N – jami kuzatuvlar soni,
- k – guruhlar soni (reyting toifalari),
- n_i – har bir i -guruhdagi kuzatuvlar soni,
- R_i – i -guruhdagi kuzatuvlarning umumiy o'rin raqamlari yig'indisi.

Mazkur testda barcha qiymatlar umumiy ro'yxatga saralanadi va har bir kuzatuvga rank (tartib raqam) belgilanadi. Har bir guruh uchun bu ranklar yig'indisi asosida yuqoridagi formula yordamida statistik H qiymati aniqlanadi.

Tadqiqotda reyting toifalari bo'yicha (AAA, AA, A, BBB, BB, B, CCC, CC, C, D) 9000 dan ortiq yuridik shaxslarning "xavf summasi (mln so'm)" ko'rsatkichlari o'rganildi. E'tiborga molik jihat shuki, ba'zi guruhlarda kuzatuvlar soni kam bo'lganligi sababli test faqat etarlik hajmdagi guruhlarda ($n \geq 2$) amalga oshirildi.


Statistik tahlil natijalari quyidagicha:

- H statistikasi: $H = 756.28$
- p -qiymat: $p < 0.0001$

Ushbu natijalar reyting toifalari bo'yicha xavf summasi farqlari mavjudligini statistik jihatdan ishonchli ekanligini ko'rsatadi. Bu esa barqarorlik reytingi tizimi soliq xavfini differensial baholashda metodologik asosga ega ekanligini tasdiqlaydi.

Grafik tahlil natijalari ham bu xulosani qo'llab-quvvatlaydi: "D" va "C" reyting toifalarida xavf miqdori yuqori va tarqoqligi keng, "AAA"–"A" toifalardagi subyektlarda esa xavf miqdori ancha past va barqaror. Bu holat reytingning fiskal xavfni aniqlovchi vosita sifatidagi real mexanizmini namoyon etadi.

Ushbu natija reyting toifalari bo'yicha soliq xavfi summasining sezilarli farqlanishini tasdiqlaydi. Ya'ni, reyting tizimining amaliy samarasidan biri sifatida – past reytingli subyektlar yuqori xavfga ega bo'lishi statistik asos bilan isbotlandi (4-rasm).



4-rasm. Reyting toifalari bo'yicha xavf summasi taqsimoti (boxplot)

Barqarorlik reytingi tizimi nafaqat formal mezonlarga asoslangan ball berish tizimi, balki soliq xavfini real baholovchi vosita sifatida ham xizmat qilishi mumkin. Bu tizim orqali soliq xavflari profilaktik tarzda aniqlanishi, reyting orqali rag'batlantirish mexanizmlarining iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlashga xizmat qilishi statistik asosda tasdiqlandi.

"AAA", "AA" va "A" toifalariga mansub subyektlar soni nisbatan kam (9 631 ta yoki 2%) bo'lishiga qaramay, ularning har biriga to'g'ri keladigan foyda hajmi, ish haqi jamg'armasi, bir ishchiga to'g'ri keladigan daromad va samaradorlik ko'rsatkichlari yuksak darajada. Bu korxonalar, odatda, korporativ boshqaruv madaniyati shakllangan, fiskal yondashuvda ixtiyoriylik asosida yuqori tartib-intizomga ega subyektlar hisoblanadi.

Qiziqarli jihati shundaki, "B" reyting toifasidagi subyektlar tomonidan amalga oshirilgan eksport hajmi 1 732,2 mln AQSH dollariga yetgan, bu esa AAA, AA va A toifalari umumiy eksportidan ham yuqori (masalan, AAA — 67,4 mln, A — 532,6 mln, AA — 281,7 mln dollar). Ushbu raqamlar shuni ko'rsatadiki "B" toifasidagi korxonalarda real iqtisodiy faollik va global raqobatbardoshlik mavjud, biroq ular reytingda past ko'rsatkichga ega bo'lib, bu holat ularning soliq intizomida sustlik, hujjatlar yuritilishida nomuvofiqlik, yoki kamaytiruvchi mezonlar (masalan, hisobotlarga tuzatishlar, qarzdorlik, rasmiy mulk yo'qligi) mavjudligini ko'rsatadi.

Ushbu tafovut shuni ko'rsatadiki, reyting tizimining amaldagi mezonlari, asosan, formal soliq-huquqiy muvofiqlikni baholashga yo'naltirilgan bo'lib, real iqtisodiy samaradorlikni to'laqonli qamrab olmayapti. Boshqacha aytganda, yuqori foyda yoki eksport hajmiga ega bo'lgan korxonalar ayrim hollarda faqat hujjatlashtirishdagi noaniqliklar yoki reyting tizimidagi metodologik nomuvofiqliklar sababli past reyting toifalariga tushib qolmoqda. Bu holat reyting natijalarining iqtisodiy real holatga mosligini pasaytiradi hamda tizimga bo'lgan ishonchni susaytirish xavfini tug'diradi.

Reyting tizimining metodologik asoslarini yanada mustahkamlash, iqtisodiy real holatni haqqoniy aks ettirish va sun'iy ko'rsatkichlarning oldini olish maqsadida quyidagi ilmiy asoslangan takomillashtirish choralari joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi (5-rasm).



Reyting mezonlari tarkibiga korxonaning sof foydasi, eksport hajmi va to'langan soliqlar miqdorining o'zaro nisbatini ifodalovchi kompozit ko'rsatkichlar (ya'ni, iqtisodiy samaradorlik indeksleri) kiritilishi lozim. Bu yondashuv korxonaning fiskal intizomi bilan birga uning real iqtisodiy natijalarini ham baholash imkonini beradi.



Reyting baholash tizimiga "ekvivalent daromadga soliq hissasi" (ya'ni, effektiv fiskal yondashuv – to'langan soliqlarni umumiy tushumga nisbatan baholovchi ko'rsatkich) indikator sifatida kiritilishi kerak. Bu soliq intizomini daromadga nisbatan obyektiv tarzda baholashni ta'minlaydi.



Iqtisodiy samaradorlik (real tushum, foyda, eksport) hamda ijtimoiy foyda (doimiy bandlik yaratish, eksportga yo'naltirilgan mahsulot ulushi, hududiy ta'sir) kabi ko'rsatkichlar rag'batlantiruvchi mezonlar sifatida alohida modulda ko'zda tutilishi lozim. Bu korxonalarning ijobiy ijtimoiy-iqtisodiy ta'sirini reyting tizimi orqali e'tirof etish imkonini beradi.



Reyting tizimi va CRM-NEW axborot tizimi o'rtasida to'liq ma'lumotlar integratsiyasi yo'lga qo'yilishi zarur. Shu bilan birga, sun'iy ball yig'ish yoki reytingni manipulyatsiya qilish holatlarini aniqlashga qaratilgan anomal tahlil algoritmlari joriy etilishi kerak. Bu yerda mashinaviy o'rganishga asoslangan algoritmlar orqali normadan chetga chiqqan xatti-harakatlar (outliers) avtomatik tarzda flag qilinadi va reyting aniqligi oshiriladi.

5-rasm. Reyting tizimining metodologik asoslarini takomillashtirish choralari

Hozirgi barqarorlik reytingi tizimi, asosan, soliq intizomi va huquqiy muvofiqlik mezonlariga tayangan holda shakllantirilgan bo'lib, u korxonalar faoliyatining eksport salohiyati, foydalilik darajasi hamda umumiy iqtisodiy samaradorligini yetarli darajada aks ettira olmayapti. Bu esa reyting tizimining faqat formal va deklarativ yondashuv bilan cheklanib qolishiga olib keladi.

Shu boisdan, differensial indikatorlar bazasini kengaytirish, ya'ni reyting modeliga real iqtisodiy faollikni aks ettiruvchi ko'rsatkichlar (sof foyda, eksport hajmi, soliq tushumlarining dinamikasi va yalpi daromadga nisbati kabi ko'rsatkichlar)ni kiritish reytingning iqtisodiy mazmunini kuchaytiradi. Bunday yondashuv, reyting natijalarini nafaqat fiskal intizom, balki makroiqtisodiy va mikroiktisodiy kontekstdagi haqiqiy samaradorlik bilan uyg'unlashtirish imkonini beradi. Natijada, barqarorlik reytingi nafaqat tartib-intizomni baholovchi vosita, balki iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantiruvchi strategik indikator sifatida ham ishlay boshlaydi.

Xulosa va takliflar.

O'zbekistonda "Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingi" tizimining joriy etilishi iqtisodiy boshqaruvning yangi bosqichini boshlab berdi. Mazkur tizim yuridik shaxslar faoliyatini 23 ta mezon asosida avtomatlashtirilgan tarzda baholash orqali soliq intizomi, moliyaviy shaffoflik va institutsional barqarorlikni aniqlashga xizmat qilmoqda. Yuqori reytingli ("AAA", "AA", "A") subyektlar tomonidan davlat byudjetiga to'langan soliqlar hajmi ularning iqtisodiy salohiyatini tasdiqlaydi va reyting tizimining amaliy natijadorligini ko'rsatadi.

Shunga qaramay, reyting tizimining amaldagi metodologiyasi ayrim holatlarda real iqtisodiy samaradorlikni to'liq aks ettira olmayotgani kuzatilmoqda. Ayniqsa, faoliyat ko'rsatmayotgan yoki rasmiy mulkka ega bo'lmagan, lekin ball to'plagan subyektlarning

mavjudligi, tizimda formal yondashuvning ustunligini ko'rsatadi. Bundan tashqari, sektorlar kesimida, xususan, qishloq xo'jaligi va savdo tarmoqlarida reyting natijalari juda past bo'lib, bu hududiy va tarmoq darajasidagi institutsional tafovutlarni ochib bermoqda.

Shu asosda, reyting tizimini takomillashtirish bo'yicha quyidagi umumlashtirilgan ilmiy-amaliy takliflar bildiriladi. Birinchidan, reyting indikatorlariga real iqtisodiy natijalarni aks ettiruvchi ko'rsatkichlar ya'ni sof foyda, eksport hajmi, soliq tushumlari dinamikasi va ish haqi jamg'armasi kabi sub-indikatorlarni kiritish zarur. Bu yondashuv reyting baholashining faqat hujjatli emas, balki natijaviy xususiyatini kuchaytiradi.

Ikkinchidan, "CRM-NEW" axborot tizimi bilan to'liq integratsiyalashgan holda reyting formulasining iqtisodiy mantiqiylikini oshirish lozim. Bu orqali real tushumlar va moliyaviy oqimlar bilan reyting ballari o'rtasidagi uyg'unlik ta'minlanadi.

Uchinchidan, reyting manipulyatsiyasining oldini olish uchun sun'iy intizom ko'rsatkichlarini aniqlovchi zamonaviy algoritmlar, jumladan, anomaliyani aniqlash tizimlari (anomaly detection) joriy etilishi maqsadga muvofiqdir.

To'rtinchidan, sektorlar va biznes subyektlari turlariga moslashtirilgan reyting modellarini ishlab chiqish, ayniqsa, qishloq xo'jaligi, kichik biznes va eksportga yo'naltirilgan korxonalar uchun differensial indikatorlar bazasini shakllantirish zarur.

Nihoyat, reyting tizimi nafaqat nazorat, balki strategik rag'batlantirish vositasiga aylanishi uchun uning asosida soliq imtiyozlari, davlat xaridlari, kredit baholash va tashqi investitsiya salohiyatini belgilovchi mezon sifatida foydalanish taklif etiladi. Bu yondashuv reyting tizimini fiskal boshqaruvning markaziy elementiga aylantirib, iqtisodiy islohotlarning chuqurlashuviga xizmat qiladi.

Umuman olganda, reyting tizimining xolisligi, iqtisodiy real holatga mosligi va rag'batlantiruvchi mexanizmlar bilan uyg'unligi uning kelgusidagi barqarorligi va ishonchligini belgilovchi muhim omillar bo'lib qolmoqda.

Adabiyotlar /Jumepamypa/Reference:

Abdullayev, Z.S. (2025). Barqarorlik reytingi orqali fiskal intizom va biznes muhitini rag'batlantirish: O'zbekiston tajribasi. *O'zbekiston sug'urta bozori*, 1(34), pp. 25–38.

Alm, J. (1999). *Tax Compliance and Administration*. Georgia State University, USA.

Ayupov, R.X. & Urunov, R.S. (2019). Raqamli iqtisod va 4.0 Industriya. *Innovatsion rivojlanish jurnali*, 4(1), pp. 58–67.

Bazarova, E. (2024). O'zbekiston Respublikasi soliq tizimini takomillashtirish yo'llari. *Soliq siyosati va amaliyoti*, 3(19), pp. 11–23.

Becker, G. & Murphy, K. (1988). *The Family and the State*. *Journal of Law and Economics*, 31(1), pp. 1–18.

Fitch Ratings. (2022). *Corporate Rating Methodology*. Fitch Group.

Islomov, A. & Gulomov, D. (2023). Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarida reyting tizimlarining o'rni. *Iqtisodiyot va moliya jurnali*, 2(46), pp. 42–53.

Moody's Investors Service. (2023). *Rating Symbols and Definitions*. Moody's Analytics.

Nazarova, S. (2021). *Moliyaviy savodxonlik asoslari*. Toshkent: Innovatsiya nashriyoti.

OECD. (2017). *Tax Administration Comparative Information Series (TACIS)*. Paris: OECD Publishing.

Qaror (2024) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. PQ-39-son qaror: Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini joriy etish to'g'risida. 23-yanvar 2024-yil. <http://lex.uz/>

Qaror (2024) Vazirlar Mahkamasi. (2024). VMQ-55-son qaror: Barqarorlik reytingi baholash mezonlari to'g'risidagi nizom. 30-yanvar 2024-yil. <http://lex.uz/>

S&P Global Ratings. (2023). *Principles of Credit Ratings*. S&P Global.

Saidova, M. (2022). *Raqamli iqtisodiyot va fiskal intizom*. Toshkent: Iqtisod-Moliya nashriyoti.

World Bank. (2020). *Doing Business 2020: Comparing Business Regulation in 190 Economies*. Washington, DC: World Bank.